

Universitet talabalari o'rtasida korrupsiyaga qarshi murosasizlik tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan insholar tanlovini o'tkazish to'g'risidagi NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom talabalar o'rtasida korrupsiyaga qarshi murosasizlik tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan insholar tanlovini (keyingi o'rinlarda - insholar tanlovi deb yuritiladi) tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.
2. Universitet talabalari tanlov ishtirokchilari hisoblanadi.

2-bob. Tanlovdan ko'zlangan maqsad va vazifalar

3. Tanlovni tashkil etishdan **asosiy maqsad** – talabalarda korrupsiyaga qarshi huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish, unga qarshi murosasiz munosabatda tarbiyalash hamda yoshlarni mazkur illatga qarshi kurashishga keng jalb qilishdan iborat.
4. Tanlovni tashkil etish orqali quyidagi **vazifalar** bajarilishi ko'zda tutiladi:
universitetda korrupsiyaga qarshi ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish;
yoshlarning korrupsiya va uning o'ziga xos xususiyati, uning oldini olish masalalari yuzasidan bilim, ko'nikmalarini oshirish;
talabalarining korrupsiyaga qarshi murosasizlik tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan insholar tanlovida erkin mavzudagi ijodiy ishlarini munosib baholab, ularni taqdirlash.
5. Tanlov quyidagi ketma-ketlikdagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:
 - a) Tanlovni o'tkazish haqida e'lon qilish;
 - b) Tanlov hakamlar hay'ati tarkibini shakllantirish va tasdiqlash;
 - c) Tanlov ishtirokchilaridan insholarni qabul qilish;
 - d) Tanlov hakamlar hay'ati tomonidan g'oliblarni aniqlash;
 - e) Tanlov tashkilotchilari tomonidan g'oliblarni taqdirlash.

3-bob. Hakamlar hay'atini shakllantirish tartibi

6. Tanlovga topshirilgan materiallarni baholash shakllantiriladigan hakamlar hay'ati tomonidan baholanadi.
7. Hakamlar hay'ati kollegial organ hisoblanib, kelishuvga asosan, universitet bo'lim boshliqlari, dekanlari, xodimlar va professor-o'qituvchilardan tarkibidan kamida 5 nafardan iborat tarkibda tashkil etiladi.
8. Hakamlar hay'atining tarkibi universitet rektorining tegishli buyrug'i bilan tasdiqlanadi.
9. Hakamlar hay'ati ishtirokchilar tomonidan topshirilgan materiallarni baholash, tanlov jarayonida to'plangan hujjatlarni ko'rib chiqish bo'yicha ish olib boradi.

10. Hakamlar hay'ati nomzodlar materiallarini baholash, materiallarni ko'rib chiqmasdan qoldirish, g'oliblarni aniqlash haqida va boshqa qarorlarni qabul qiladi.

11. Tanlov hakamlar hay'ati a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda qaror qabul qilishga vakolatli hisoblanadi.

4-bob. Tanlovni o'tkazish tartibi

12. Insholar tanlovi 3-4-dekabr kunlari o'tkaziladi:

Insholar o'zbek, qoraqalpoq yoki rus tillarida yozilishi mumkin;

3-dekabr belgilangan auditoriyada insholar tanlovini o'tkazib talabalar tomonidan topshirilgan materiallarni yig'ib olish;

3-4-dekabr hay'at a'zolari tarkibida talabalar tomonidan topshirilgan materiallarni tekshirib ularni baholash.

13. Insholar ishtirokchilarga manzili haqida oldindan ma'lum qilingan tegishli auditoriyada o'tkaziladi.

5-bob. G'oliblarni baholash va taqdirlash tartibi

14. Tanlovda Hay'at tomonidan ishtirokchilarning **inshosi** quyidagi baholash mezonlari asosida o'rganilib, **jami 100 ball** bilan baholanadi:

15. Inshoning tanlangan mavzu doirasida bayon etilganligi - 25 ball;

16. Tanqidiy nuqtai nazar mavjudligi va yetarlicha asoslantirilganligi - 30 ball;

17. Fikrlarning originalligi, boshqa manbalardan ko'chirilmaganligi - 30 ball;

18. Uslubiy, grammatik va imloviy xatolardan holiligi - 15 ball.

19. Tanlov natijalari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnoma asosan talabalarning korrupsiyaga qarshi murosasizlik tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan insholar tanlovidagi ijodiy ishlari bo'yicha g'oliblar universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan quyidagicha taqdirlanadi.

Tanlovda yuqori (1-, 2-, 3-) o'rinlarni egallagan talabalar universitet tomonidan maxsus diplom va quyidagicha pul mukofoti:

1-o'rin – 1.500.000 (bir million besh yuz ming) so'm;

2-o'rin – 1.000.000 (bir million) so'm;

3-o'rin – 500.000 (besh yuz ming) so'm bilan rag'batlantiriladi.

Shuningdek, tanlovda faol ishtirok etgan talabalar universitetning faxriy yorliqlari bilan taqdirlanadi. Yuqori (1-, 2-, 3-) o'rinlarni egallagan talabalarning ijodiy ishlari universitetning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida yoritiladi.

20. Tanlov natijalarini e'lon qilish hamda g'oliblarni taqdirlash, qoida tariqasida, "9 dekabr - Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni" arafasida tanlov hay'ati a'zolari, ishtirokchilar, ijodiy jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari vakillari taklif qilingan holda amalga oshiriladi. Tanlov g'oliblari va sovrindorlari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

21. Hay'at kotibi tanlovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishda yagona ilmiy-uslubiy yondashuvni ta'minlaydi, tanlovni olib borilishi bo'yicha tegishli hujjatlarni yuritadi, sinov topshiriqlarini tayyorlaydi.

22. Insholar tanlovining Nizomiga rioya qilmagan shaxslar hakamlar hay'ati qarori bilan tanlovdan chetlashtiriladi.

23. Tanlovga material taqdim etgan har bir ishtirokchi o'z materialining mualliflik huquqi egasi ekanligiga kafolatlashi va uchinchi shaxslarning intellektual huquqlarini buzmasligini tasdiqlashi shart.

Materiallarda uchinchi shaxslarning intellektual huquqlari ob'ektlaridan foydalanilgan taqdirda, ishtirokchi mualliflarni ko'rsatishi va ishtirokchining ushbu intellektual huquq ob'ektidan foydalanish huquqiga ega ekanligini tasdiqlashi shart.

Uchinchi shaxslarning intellektual huquqlarini buzganligi uchun tanlov ishtirokchilari amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladilar.

24. Tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan materiallar uchinchi tomonlarning intellektual huquqlarini buzgan bo'lsa, ushbu holat yuzasidan tanlov tashkilotchilari javobgar hisoblanmaydi.

25. Nomzodlar tomonidan tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan materiallar bo'yicha izoh yoki sharh berilmaydi va ular egalariga qaytarilmaydi.

26. Tanlovni o'tkazish va uning g'oliblarini taqdirlash bilan bog'liq barcha xarajatlar universitetning budjet va budjetdan tashqari mablag'lari hamda homiylik manbalaridan qoplanadi.

27. Hakamlar hay'ati tomonidan qabul qilingan qarorga nisbatan qaror nusxasi berilgan sanadan boshlab 1 kunlik muddat ichida manfaatdor shaxs Apellyatsiya komissiyasiga apellyatsiya tartibida shikoyat kiritish huquqiga ega.

28. Universitet Apellyatsiya komissiyasi 3 kunlik muddat ichida murojaatni ko'rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi va qaror nusxasini murojaat qilgan shaxsga yuboradi:

shikoyatni qanoatlantirishni rad etib, Hakamlar hay'atining qarorini o'zgarishsiz qoldirish;

shikoyatni qanoatlantirib, Hakamlar hay'ati qarorini qisman yoki butunlay bekor qilish, yangi qaror qabul qilish.

29. Apellyatsiya komissiyasining apellyatsiya tartibida shikoyatni ko'rib chiqishi bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

30. Talabalarning eng sara ijodiy ishlari universitetning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida yoritiladi.